



KITOB MA'NAVIYAT O'CHOG'I.

*Farg'ona viloyati Bag'dod tumani MMTB tasarrufidagi 33-umumiy o'rta ta'lim
maktabi oliy ma'lumotli kutubxonachi*

Normatova Gulilola Abdullajon qizi

Annotatsiya:

Maqolada kitoblarning insoniyat hayotidagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Insonni boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan tafakkur qobiliyatining rivojlanishida kitoblarning hissasi katta ekanligi ta'kidlanadi. Kitob o'qish orqali insonning ruhiy va intellektual o'sishi, badiiy asarlar orqali esa his-tuyg'ular, tasavvurlar va fikrlar bilan tanishish imkoniyati berilishi haqida so'z boradi. Shuningdek, bugungi kunda texnologiya va ko'ngilochar vositalarning kitob o'qishga ta'siri va ularni to'g'ri foydalanish masalasi ham muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar:

Kitob, tafakkur, intellektual rivojlanish, badiiy asarlar, ma'naviyat, madaniyat, ilm, o'qish, meros, kutubxona, texnologiya.

Kirish

Kitob haqida.....

Insoniyat bu yorug' olamdagi boshqa tirik mavjudotlardan tafakkuri, ya'ni fikrlash qobiliyatiga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Odamzod yaralibdiki doimo hayotini yaxshilashga, osonlashtirishga va hayotdan lazzatlanishga harakat qilib kelgan. Lekin, bizning hayotimizga shiddat bilan kirib kelayotgan so'ngi aloqa va ko'ngilochar vositalari bizni haqiqiy insoniylik xazinamizdan uzoqlashtirmayaptimi? Men o'sha, insonni boshqa mavjudotlardan ajratib turuvchi tafakkur xazinasini bo'lmish kitoblarni nazarda tutmoqdaman. Kitob azaldan insonning eng yaqin hamrohi bo'lgan. U



ajdodlarning avlodlarga qoldirgan eng buyuk, qimmatli va betakror merosidir. Kitob o'qish insonning ruhiy va intellektual rivojlanishiga yordam beradi. Badiiy asarlar insonning his-tuyg'ularini, tasavvurlarini va fikrlarini o'rganish imkoniyatini taqdim etadi

Kitob o'qish insonning ruhiy va intellektual rivojlanishiga yordam beradi. Badiiy asarlar insonning his-tuyg'ularini, tasavvurlarini va fikrlarini o'rganish imkoniyatini taqdim etadi

Kitoblar bilimlarni oshirish, yangi ko'nikmalarni o'rganish, ruhiy qoniqish topish va umumiy madaniy darajani oshirish uchun ishlatiladi. O'qish, insonning fikrlash qobiliyatini kengaytiradi va uni turli nuqtai nazarlar bilan tanishtiradi.

Ota-bobolarimizning bilimga, kitobga bo'lgan mehr-muhabbati ona diyorumizda dunyo tamadduniga, ilm-u ma'rifat rivojiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk insonlarning yetishib chiqishiga sabab bo'lgan. Muqaddas dinimizda xoh erkak bo'lsin, hox ayol – har bir insonning ilm o'rganishi farz bo'lgan. Qur'oni Karim ilk sur'asi “o'qi” so'zi bilan boshlanishi, “ilm” so'zi unda 811 marta jaranglashi bejiz emas. Xalqimiz azaldan bilimga saodatning kaliti, komillika yeltuvchi ko'prik, insonni yovuzlikdan, xurofatdan asrovchi tumor sifatida qarashgan. Bilimli insonlar el orasida katta obro'-e'tiborga ega bo'lishgan. Sohibqiron Amir Temur dunyoviy va diniy bilimlarni chuqur egallagan hukmdor bo'lish bilan birga ilm ahlini bag'oyat qadrlagan, ularga yaqindan g'amxo'rlik qilgan, sahovatini ayamagan.

Kitob haqida turli maqollar ham mavjud masalan, Kitob — aql qayrog'i.

Kitob ko'rmagan kalla — giyoh unmagan dala.

Kitobsiz aql — qanotsiz qush.

Kitoblar — aql farzandlaridir



Kitobga bundayin ta'riflar bejiz emas, zeroki barchamizga ma'lum va mashhur "Avesto" dan tortib to "O'tkan kunlar" gacha, "Tib qonunlari"-yu "Xamsa", hattoki "Quron" ham bizgacha kitob shaklida yetib kelgan. Bu asarlar nafaqat xalqimiz tarixi, balkim butun osiyo, o'z o'rnida butun dunyo tamaddunining tamal manbaalaridandir. Aynan shu kabi asarlar insoniyatning bugungi kungacha bo'lgan dunyo qarashi, madaniyati, ma'naviyati va ahloqini shakllantirib kelgan.

Endi yuqoridagi savolga qaytsak, hayotimizga shiddat bilan kirib kelayotgan so'ngi aloqa va ko'ngil ochar vositalari bizni haqiqiy insoniylik xazinamizdan uzoqlashtirmayaptimi?. To'g'ri, biz bugungi kunda kitobni kamroq mutolaa qiladigan bo'ldik, ko'proq mobil telefonda gaplashishni yoki bizga kerakli ma'lumotni internetdan qisqa muddat ichida topishni kitob o'qishdan ko'ra anchayin abzal ko'ramiz. Biroq bu yerda hayotimizga shiddat bilan kirib kelayotgan so'ngi aloqa va ko'ngil ochar vositalarini mutlaq ayblash ham xatodir. Bu kabi vositalarning o'z vazifasi bordir, ularning bu vazifalaridan bizning o'zimiz noto'g'ri foydalanmayapmizmi? Xo'sh, siz-u bizni kimdir mana shu vositalardan foydalanishga majbur qilmoqdam yoki bizga o'qish uchun ortiq kitob qolmadimi? Yo'q, albatta, barcha gap o'zimizda. Agar biz kitob o'qishni istasak hech kim bizga to'sqinlik qila olmaydi, faqat buni o'zimiz astoyidil istasak kifoya.

Ma'naviyat — inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o'z ichiga oladi. Ma'naviyat atamasining asosida „ma'no“ so'zi yotadi. Ma'lumki, insonning tashqi va ichki olami mavjud. Tashqi olamiga uning bo'ybasti, ko'rinishi, kiyinishi, xatti-harakati va boshqa kiradi. Ichki olami esa uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu-istaklari, intilishlari, his-tuyg'ularini o'z ichiga oladi. Insonning ana shu ichki olami ma'naviyatdir. Oziq-ovqat odamga jismoniy quvvat bersa, ma'naviyat unga ruhiy ozuqa va qudrat bag'ishlaydi. Ma'naviyat ma'rifat va madaniyat bilan bog'liq. Ma'naviyat odamlarda tap-tayyor holda vujudga kelmaydi. Unga muttasil o'qish,



o'rganish, tajriba orttirish orqaligina erishiladi. Ma'naviyat qanchalik boyib borsa, jamiyat va millat shunchalik ravnaq topadi. Ma'naviyatli odam yashashdan maqsad nimaligini aniq biladi, umrini mazmunli o'tkazish yo'lini izlab topadi, muomala qilish madaniyatini egallaydi, har bir masalaga insof va adolat nuqtai nazaridan yondoshadi. : Kitoblar madaniy va adabiy merosni saqlab qolish va kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. Badiiy asarlar orqali insoniyatning turli madaniy tajribalari bilan tanishish mumkin

Men Maylaboy qishlog'ining 33-maktabida kutubxonachi lavozimida faoliyat yuritaman. Yoshi katta nuroniy otaxonlar ham bizga kelib kitob mutolaa qilishadi. O'tkan yildan beri Maylaboy MFYda kutubxona ishga tushdi. Lekin hali ham bizning Do'stlik MFYda hamon kutubxona mavjud emas. Ko'p qavatli bino bo'lganligi uchun aholi soni ham ko'p. Axoli qanchalik ko'p bo'lsa shunchalik kutubxonaga extiyoj sezilayapdi.

Xulosa

Kitoblarni ikki guruhga ajratish mumkin: kun kitobi va barcha kunlarning kitobi.

Jon Ruskin

Kitoblarim men uchun butun umrga yetajak ulkan qirollikdir.

Uilyam Shekspir

Hulosa qilib aytganda,yoshlar kelajagi mahalladan boshlanadi. Biz yoshlarga kitob o'qishga qiziqtirishimiz uchun Mfylarda kutubxonalar bo'lishi zarur.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydyevori. – T.: “SHarq” nashriyot-matbaa kontsyernining Bosh tahririyati. 1997.
2. Qodirov B. «Ta'lim tizimidagi islohotlar maqsad va yo'nalishlar». T.: «O'zbekiston» - 2000.
3. B.Farbyerman. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. «Fan» nashriyoti 2000 yil.
4. Tolipov O'.Q., Barakayev M., SHaripov SH.S. Kasbiy pedagogika. – T.: TDIU, 2001 yil.
5. Sayidahmyedov N. Pedagogik texnologiyalar.-T.:Moliya, 2003 yil.
6. Sayidaxmyedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari.-T.: RTM. 2000 yil.
7. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar.-T.: TDPU, 2003 yil.
8. www. Ziyonet. uz. -
9. www. dl.uz. - Masofaviy ta'lim tizimiga bag'ishlangan vyeб sayt.